



**O`QUVCHILAR PORTFELI ASOSIDA KOMPETENSIYALAR
MONITORING TIZIMI.**

O`zbekiston Respublikasi
Oliy Ta`lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi
Osiyo Xalqaro Universiteti
Muzaffarova Zebiniso Hikmatullo qizi

Annotatsiya: Mazkur tezisda o`quvchilar portfeli asosida kompetensiyalarni monitoring qilish tizimining nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Tadqiqotda portfel texnologiyasining o`quvchilarda asosiy tayanch kompetensiyalarni shakllantirish hamda baholashdagi o`rni tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida portfel monitoringi o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini tizimli ravishda aniqlash, ularning individual rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini berishi asoslab berilgan. Tezisda monitoring jarayonini samarali tashkil etish mexanizmlari, mezon va ko`rsatkichlari hamda amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so`zlar:** kompetensiya, kompetensiyalar monitoring, o`quvchilar portfeli, portfel texnologiyasi, baholash tizimi, kompetensiyaviy yondashuv, ta`lim sifati.

Asosiy matn

Bugungi kunda ta`lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o`quvchilarda nafaqat bilim, balki amaliy ko`nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni shakllantirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, o`quvchilar kompetensiyalarini baholash va monitoring qilishning samarali vositalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O`quvchilar portfeli kompetensiyalar monitoringini amalga oshirishda muhim pedagogik texnologiya sifatida namoyon bo`ladi. Portfel o`quvchining o`quv faoliyati natijalari, ijodiy ishlari, mustaqil topshiriqlari, loyihalari va yutuqlarini jamlovchi vosita bo`lib, u orqali o`quvchining individual rivojlanish dinamikasini kuzatish mumkin. Portfel asosida monitoring qilish o`quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini bosqichma – bosqich aniqlash imkonini beradi.

Kompetensiyalar monitoring tizimi mezonlar, ko`rsatkichlar va baholash darajalariga asoslanadi. Ushbu tizimda o`quvchining bilimi, amaliy faoliyati, muammoli vaziyatlarini hal etish qobiliyati hamda reflektiv ko`nikmalari baholanadi.



Portfel monitoringi o`quvchilarda o`z-o`zini baholash, ma`suliyat va mustaqil fikrlash kompetensiyalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o`quvchilarning portfeli asosida kompetensiyalar monitoring tizimini joriy etish ta`lim sifatini oshirish, baholash jarayonining shaffofligini ta`minlash hamda o`quvchilarning individual imkoniyatlarini to`liq namoyon etishda samarali pedagogik mexanizm hisoblanadi.

Kompetensiyalar monitoring portfel ma`lumotlari asosida diagnostika, tahlil va baholash bosqichlarini qamrab oladi. Diagnostika bosqichida o`quvchilarning mavjud kompetensiyalari aniqlanadi, tahlil jarayonida ularning rivojlanish tendensiyalari baholanadi, natijada individual rivojlanish yo`nalishlari belgilanadi. Bu jarayon o`qituvchiga ta`lim jarayonini individuallashtirish va differensial yondashuvni qo`llash imkonini beradi. Monitoring natijalari asosida o`quvchilar o`z yutuq va kamchiliklarini anglaydi hamda kelgusidagi o`quv faoliyatini rejalashtirishga o`rganadi. Natijada ta`lim jarayonining sifat ko`rsatkichlari oshib kompetensiyalarni shakllantirishga yo`naltirilgan samarali monitoring tizimi vujudga keladi. O`quvchilar portfeliga asoslangan kompetensiyalar monitoring tizimi ta`lim sifatini baholashning zamonaviy usuli hisoblanadi. Bu tizim o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini doimiy kuzatish orqali ularning rivojlanishini ta`minlaydi.

Portfel o`quv jarayonidagi barcha dalillarni (ishlar, loyihalar, testlar) jamlaydi va kompetensiyalarni mezonlar bo`yicha baholaydi. Monitoring orqali o`quvchilarning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, individual yondashuv shakllantiriladi. Asosiy komponentlariga vizual kuzatuv, testlar va portfellar baholash mezonlari sanaladi. Bilimlarning real hayotga mosligini tekshirish va pedagogik kadrlar samaradorligini oshirish. Tizim ta`lim natijalarini kasbiy faoliyatiga tayyorlik nuqtai nazaridan baholaydi. Xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda modellar ishlab chiqiladi. O`zbekistonda professional ta`limda keng qo`llanilmoqda.

Zamonaviy ta`lim tizimida o`quvchilarning bilim darajasini aniqlash bilan bir qatorda, ularning kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuv o`quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda to`g`ri qaror qabul qilish va ijtimoiy faol bo`lish kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, o`quvchilar portfeli asosida kompetensiyalar monitoring tizimini joriy etish ta`lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik mexanizm sanaladi.

Portfel asosida kompetensiyalar monitoring aniq mezonlar va indikatorlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Jumladan, kommunikativ kompetensiya

o`quvchining fikrini og`zaki va yozma ravishda ifodalash darajasi orqali baholanadi. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi axborotni izlash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko`nikmalari asosida aniqlanadi. O`z – o`zini rivojlantirish kompetensiyasi esa o`quvchining mustaqil ta`lim olishga bo`lgan intilishi va refleksiv faoliyati orqali baholanadi. Monitoring jarayonida olingan natijalar o`qituvchi va o`quvchi uchun teskari aloqa vazifasini bajaradi. Bu esa ta`lim jarayonini individuallashtirish, o`quvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlariga moslashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, monitoring natijalari asosida pedagogik faoliyatni rejalashtirish va takomillashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Portfel asosida baholashning afzalligi shundaki, u an`anaviy baholash usullariga nisbatan obyektivroq bo`lib, o`quvchining faqat yakuniy natijasini emas, balki rivojlanish jarayonini ham hisobga oladi. Bu esa o`quvchilarda o`z – o`zini baholash, ma`suliyat va mustaqillik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o`quvchilar portfeli asosida kompetensiyalar monitoring tizimi ta`lim jarayonida shaxsga yo`naltirilgan yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu tizim o`quvchilarning kompetensiyalarini aniqlash, rivojlantirish va baholashda samarali pedagogik vosita bo`lib, ta`lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O`zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan ham portfel texnologiyasi masalasi turli rakurslarda o`rganilgan. M.Rajabov, G.Abdullayeva, D.Toshtemirova, N.Yusupova va boshqa mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida portfelning ta`lim jarayonidagi o`rni, uning baholash tizimidagi afzalliklari, o`quvchi shaxsining rivojlanishiga ta`siri yoritilgan. So`nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuv bo`yicha olib borilgan tadqiqotlarda umumiy o`rta ta`limda kompetensiyalarni shakllantirish va baholash mezonlari ilmiy asoslangan.

Biroq mavjud ilmiy manbalarda o`quvchilar portfeli asosida kompetensiyalar monitoring tizimini yaratish, uning didaktik modeli, raqamli portfel asosidagi baholashning mexanizmlari, uzluksiz monitoring jarayonining algoritmlari to`liq ishlab chiqilmagan. Shu bois mazkur mavzu bo`yicha mavjud ilmiy tadqiqotlar yetarli asos yaratgan bo`lsa – da, portfel va kompetensiyalar monitoringi o`rtasidagi integratsiyalangan tizimni ishlab chiqish, uning samaradorligini eksperimental jihatdan isbotlash bugungi kunda pedagogik adabiyotlarda kam o`rganilgan muammolardan biri bo`lib qolmoqda.

Portfel asosida baholashning mazmuni, tamoyillariga va metodik asoslari o`quvchining ta`lim jarayonidagi real yutuqlari va rivojlanish suratlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur baholash turi o`quvchining shaxsiy o`sishini qo`llab –



quvvatlaydi, ta'limga ma'suliyatli yondashuvni shakllantiradi va kompetensiyaviy baholash jarayonini ilmiy asosda tashkil etishni ta'minlaydi.

Portfel texnologiyasi o'quvchining kompetensiyalarini tizimli, izchil va kompleks ravishda shakllantirishga xizmat qiladigan samarali pedagogik yondashuvdir. U o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlab, ta'lim jarayonini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish imkonini beradi. Portfelning kompetensiyalarning shakllantirishdagi o'рни va uni ta'lim monitoring, baholash va rivojlantirish strategiyasining ajralmas qismiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi» Qonuni. – Toshkent 2020
 - 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 6 – noyabrdagi PF – 6106 – son Farmoni , O'zbekistonda ta'lim – tarbiya tizimini 2030 – yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi .
 - 3.Europan Comission. Key Competences for Lifelong Learning: European Reference Framework. – Brussels, 2019.
 - 4.Barrett H Balacing the Two Faces of e – Portfolios // Educause Quarterly . – 2021 – Vol. 44 (2)
- muzaffarovazebiniso050@gmail.com